

Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li.

e-mail: mominovnodir04@gmail.com

Tel: +998902494943

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi.

Annotatsiya: *Respublikamizning janubiy mintaqalarining tarixi, madaniyati uzoq o'tmishga borib tarqaladi. Bu hudularda tashkil topgan davlatlar, tarkib topib yashab kelgan xalqlar O'rta Osiyoning boshqa hududlaridagi mintaqalariga o'z ta'sirini o'tkazgan albatta. Shu boisdan ham bu hududlarning aholisi, tarixi, madaniyati, urf-odatleri, asrlar davomidagi siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, o'zgarishlari doim qiziq bo'lib qoladi. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining va uning tarixi bilan bir xil bo'lgan yaqin hududlarning O'lkashunosligi manbalar asosida keng yoritilib, ma'lumotlar berib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Surxon vohasi, Baqtriya, Taramat, Chag'oniyon, Said Otaliq.*

Аннотация: *История и культура южных регионов нашей республики уходят в далекое прошлое. Государства и народы, сформировавшиеся в этих регионах, безусловно, оказали влияние на другие регионы Центральной Азии. По этой причине всегда интересны население, история, культура, традиции, политические, экономические, духовные изменения этих регионов. В данной статье широко освещена и дана информация на основе источников, местная история Сурхандарьинской области и близлежащих регионов, сходных с ее историей.*

Ключевые слова: *Сурханский оазис, Бактрия, Тарамат, Чаганиян, Сауд Аталик.*

Abstract: *The history and culture of the southern regions of our republic go back to the distant past. The states and nations formed in these regions definitely influenced other regions of Central Asia. For this reason, the population, history, culture, traditions, political, economic, spiritual changes of these regions are always*

interesting. In this article, the local history of the Surkhandarya region and the nearby regions, which are similar to its history, are widely covered and given information based on sources.

Keywords: *Surkhan oasis, Bactria, Taramat, Chaganiyan, Said Ataliq.*

Qadimda va o'rta asrlarda Janubiy O'zbekiston hududlarida bir necha davlatlar tarkibiga kirgan. Mil.avv. VIII-VII asrlarda boshlab Surxon vohasi Baqtriya davlatining shimoliy qismi hududiga kirgan. Arxeologlar bu davrlarga tegishli bo'lgan dehqonchilik makonlarini Mirshodi, Bandixon, Sherobod va Muzrabod hududlaridan topib tekshirgan. Antik davrda Surxon vohasi hududlarida Termiz, Dalvarzintepa ka'bi yirik shahar markazlari rivojlangan. Ilk o'rta asrlarda esa Surxon vohasi Toxariston viloyati tarkibida bo'lgan. Rivojlangan o'rta asrlarda esa voha tarixi Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar tarixi bilan bog'langan. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa voha ma'muriy va siyosiy jihatdan Buxoro amirligi tarkibiga kiruvchi beklidkan iborat bo'lgan ¹.

Arxeologik va yozma manbalarda qiyosiy o'rganish asosida tarixiy geografiyaning Baqtriya misolida ba'zi muhim masalalarni o'rganish mumkin. Bronza davriga doir Sopolli madaniyati va unga zamondosh bo'lgan Dashtli ya'ni shimoliy Afg'oniston, Nomozgoh (janubiy Turkmaniston), madaniyatlari bilan birga Oks sivilizatsiyasi nomi bilan qadimgi dunyo faniga kirdi va qadimgi Sharq sivilizatsiyasining Mesopotamiya, Qadimgi Hindiston, Xitoy va Misrdan kiyingi, ya'ni beshinchi o'chog'i sifatida e'tirof etildi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra Baqtriyadan olib borilgan Badaxshon lali (lojuvard, lazurit, azurit) qadimgi Sharq dunyosida eng mashhur topilmalardan bo'lsada, Ikki daryo mamlakatlari bilan olib borilgan siyosiy va ma'daniy aloqalar orasida Baqtriya nomi tilga olinmaydi.

O'troq manzilgohlar joylashgan hududlar chegaralari turli tarixiy davrlarda bir biriga to'g'ri kelmaydi. Yodgorliklarni rayonlashtirish arxeologik tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega. Bu xususan O'rta Osiyoning janubiy hududlarida

¹ Ochilidiev Fayzulla "Surxon vohasi beklidklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar" Toshkent 2008. 18 b.
www.tadqiqotlar.uz

joylashgan bronza va ilk temir davri yodgorliklarining kortografiyasi guvohlik beradi. Izlanishlar jarayonida Amudaryo havzasida O'rta Osiyo janubidagi Panj, Vaxsh, Kofirnihon, Surxon, Balxob, Qashqadaryo ka'bi vohalar hududlarida yodgorliklar va o'troq hududlarni rayonlashtirish masalasini tahlil qilish nazarda tutib o'tildi ².

Surxondaryo qadimiy sivilizatsiya markazi bo'lganligini, zarautsoy sirlari bilan asoslangan tasviriy san'atning 200 dan ortiq rasmlar bilan jahon san'atining taraqqiyotiga muhim hissa qo'shganligi ham isbotlaydi. Surxondaryo haqida yana bir manba bo'yicha uning tarixiga to'xtalsak, voha mil.avv. III ming yillikning oxiri-II ming yillik boshlarida Jez davrida asos solingan bo'lib, Sopollitepa, Mullali, Jarqo'ton, Ko'zali davri manbalari bilan ilk dehqonchilik markazlari Surxondaryo hududlarida vujudga kelganligini tasdiqlaydi. Surxondaryoda mil.avv XVIII-XI asrlarga oid ilk davlatchilikka asos solgan Jarqo'ton arxeologik manbasi asosida shahar, qabila, urug' oqsoqoligiga taalluqli muhr va tamg'alarga asos solgan hudud. Surxondaryoda dastlabki davlatchilik birlashmalarida Sopolli, Kuchuktepa, Tallashqon, Jondavlattepa, Qiziltepa, Xaitobodtepa, G'ozimulla, Bandixontepa ka'bi estehkomli mustahkam qo'rg'onlar mil.avv. minginchi yilliklarda asos solgan yurt.

Surxondaryo xalq og'zaki ijodining buyuk va ulug', afsonaviy bahodirlarini, To'maris, Ktan, Avestan, Alpomishlarni tarbiyalab yetkazgan buyuk zamindir.

Surxondaryo xududida Kushon imperiyasi shakllanishida 5 ta siyosiy xonadon, Xiyo'mi (Kushon), Xaytun, Geaofu, xonadonlari birlashmasidan shakllangan. Surxondaryo markazi Termiz shahrining qadimiy nomlari ham turlichadir. Xususan Taramastxa, Tarameta (Baqtriya tilida bu narigi sohildagi manzil), *Taramata, Taramat, Tami, Tarmit, Dirmat, Tarmiz, Termiz*, IV-VI asrlardagi Arman manbalarida *Dramat, Darmat*, VII asr Xitoy manbalarida *Ta'mi*, XIV asr Xitoy manbasida *Tarmiz, Tirmiz* nomlari bilan zikr qilinadi.

Surxondaryo VIII asrlarda Arab xalifaligi siyosiy ta'sirida bo'lgan. VIII-IX

² Sagdullaev A, Xolmatov N, Abdullaev U, Matyakubov X, "MARKAZIY OSIYODA TARIXIY-MADANIY VILOYATLARNING SHAKLLANISHI VA ETNIK GEOGRAFIYASI MUAMMOLARI" Toshken-2020. 150-162 b.
www.tadqiqotlar.uz

asrlarda Sherobod vohasida Kuftan yoki Guftan mulkligiga asos solingan. Voha IX-XIII asrlarda Arab, Eron va boshqa jahon tarixchilarining manbalarida o'zining tarixiy taqdirini saqlab qola oldi ³.

Temuriylar davrida yozilgan kitoblarda Markaziy Osiyo toponimiyasi muammolariga bag'ishlangan alohida bir maxsus asar bo'lmasada, biroq geografik, tarixiy va boshqa asarlarda juda ko'p tarixiy joy nomari haqida fikr bildiriladi. Ushbu toponimlar ro'yxatidan, XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda joy nomlari son jihatdan ko'p va mazmunan xilma-xildir. Ushbu asarlarda ko'pincha Samarqand, Kesh, Marv, Xuroson va Hirot ka'bi hududlarning tarixi ko'roq bayon etilgan. Ayniqsa Nizomiddin Shomiy va Sharofiddin Ali Yzdiylarning "Zafarnomasi" dagi ma'lumotlar bu o'rinda tengsizdir ⁴.

Surxon vohasida turli davrlarda turli viloyatlarga bo'linsada uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy muhiti bir butun bog'liq holda bo'lgan. Xususan Buxoroda Mang'itlar hukmronligi o'rnatilganda Surxon vohasida uchta bekklik tashkil etilgani bilan, ular o'zoro bir hududda bog'langan bo'lgan. Surxon vohasida qadim zamomlardan beri yashab kelayotgan, ildizi uzoq davrga borib tarqaladigan shaharlar va me'moriy obidalar joylashgan ona zamin hamdir.

X-XII asrlarda Termiz shahrining umumiy maydoni 500 gektar bo'lgan bo'lsa, Chag'oniyon shahrining markazi 6 kv.km ga teng bo'lgan. O'sha davr uchun bu ko'rsatkichlar albatta katta hisoblanadi.

Termiz Sharofiddin Ali Yazdiyning mashhur "Zafarnoma" asarida "Madinat ur-rijol" (Mardlar shahri) Chingizxonga juda qattiq qarshilik ko'rsatgani uchun tarixiy nom olgan. Termiz sayyoh va elchi Ibn Battutaning "Sayohatnoma" kitobida, shunday deb, ta'kidlab o'tadi. "Termiz shahri chiroyli imoratlar va bozorlari ko'p bo'lgan yirik shahar, go'sht va sut juda serob" deb baholangan. Termiz va Chag'oniyon Sohibqiron Amir Temurning iqtisodiy va siyosiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan shahar bo'lib, 1370 yilda Amir Temur Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'ida Amir deb e'lon qilinib, unga "Sohib-ul-qiron" ya'ni yulduzlar sultoni

³ Tursunov Saypulla Narzullaevich. "SURXONDARYO VILOYATINING TURIZIM SALOXIYATI" 12-14 B.

⁴ Omonullo Bo'riev. "TEMURIYLAR DAVRI YOZMA MANBALARIDA MARKAZIY OSIYO" Toshkent 1997. 134-138 b.

www.tadqiqotlar.uz

unvoni berilgan.

Ispaniya elchisi Rui Gonsales De Klavixo Samarqandga Sohibqiron huzuriga borayotganda 1404 yil Termiz shahrida bo'lib, "Termiz juda katta va aholisi zich, unda tashqi devor istehkom devorlari yo'q, bog'lar va anhorlar ko'p" deya aytib o'tadi.

Surxon vohasida XVI asrda Shayboniy Said Muhammad Sultonning siyosiy ta'sirida bo'lgan. XVII asrda yirik ustoz tarixchi Muhammad ibn Bale "Baxr ul-asror fi manoqib al-axyor" asarida Termizni to'rtinchi iqlimga kiritib, Solixobod qishlog'i haqida tarxiiy ma'lumot qoldirgan. XIX asrda Surxon vohasi adabiy muhitida Xoja Samandar ibn Baqo Termiziy, Abdullox Termiziy, Taqiy Termiziy, So'fi Olloyor ka'bi insonlar o'zlarining ijodi bilan tanilgan.

Termiz shahri 1893-yil 15-yanvarda Rossiya-Buxoro shartnomasi asosida Rossiya podshosiga sovg'a sifatida in'om etilgan . 1894-yil Termizda Bojxona tizimi tashkil etilgan. 1927 yili 23-iyulida O'zbekiston SSR hukumati qarori bilan Surxondaryo okrugining ma'muriy markazi Sheroboddan Termizga ko'chirildi. Surxondaro Viloyati 1941 yil 6-martda tashkil topgan ⁵.

Chag'oniyon qadimgi shaharlardan biri hisoblanib, arabchada Sag'oniyon deb atalgan. Bu hudud haqidagi dastlabki ma'lumotlarni Syan Szan tomonidan milodiy taxminan 630 yillarda qayd etilgan. Mil.avv. II-mingyillikning ikkinchi yarmida bu yerda eng dastlabki dehqonchilik manzilgohi bo'lgan Mo'lalitepa, mil.avv. I-mingyillik o'rtasida esa ilk shahar Qiziltepa vujudga kelgandir. Milod arafasida Chag'oniyon Yuichjiylar davlatining eng asosiy joylaridan biri bo'lgan. Milodiy I asrdan to III asrgacha voha, Kushon podsholigi hududlariga kirgan. Chag'oniyon III-IV asrlarning ikkinchi yarmigacha Sosoniy Kushonlar qo'l ostida bo'lgan. V-VI asrlarda Viloyat birik ketin Eftaliylar, Sosoniylar qo'l ostida bo'lgan. VI asrning ikkinchi yarmidan tortib VIII asrning ikkinchi yarmigacha Chag'oniyonda mahalliy hukmdorlar hukmronligi o'rnatilgan. Turli xil manbalarda Farg'anish, Sashr, Zarin, Turontosh, Tish, Xnar ka'bi chag'onxudotlarning ismlari ma'lum. VII asrning ikkinchi yarmida bu yerlarga Arablar bostirib kelishgan. IX-

⁵ Tursunov Saypulla Narzullaevich. "SURXONDARYO VILOYATINING TURIZIM SALOXIYATI" 14-16 b.

XI asrlarda Chag'oniyon Somoniylarning eng qudratli yarim mustaqil vassal hududlaridan biri bo'lgan.

Chag'oniyon poytaxti ham Sag'oniyon deb atalib, Denovdan 6 km janubiy – sharqdagi Budroch shahri xarobasi o'rnida bo'lgan. XI asrda Chag'oniyon bir qadar Qoraxoniylarga qaram bo'lib qoladi. Biroq ko'p jihatdan mustaqilligini saqlab qoladi. XI asr oxiri XII asr boshlarida Chag'oniyon Saljuqiylar davlati tarkibiga kiradi. XII-XIII asrlarda Chag'oniyonni birin-ketin Qoraxoniylar, Qarluqlar, G'uriylar, Xorazmshohlar idora etganlar.

Mo'g'illar istilosidan so'ng XIII asr o'rtasida Chag'oniyon Temuchinning o'gli bo'lmish Chig'atoyning nabirasi Yesun Tuvaning, kiyin uning o'g'li Baroqning merosiy mulkiga aylangan. Bu davrda yangi shahar ilgarigi rabot o'rniga vujudga kelib toki XVI asr boshigacha mavjud bo'lgan. XVI asr boshlarida esa Muhammad Shayboniyxon tomonidan bosib olinib, Buxoro xonligi tarkibiga qo'shib olinadi. Shundan so'ng asosiy markaz *Dehinav*, hozirgi Denovga ko'chirildi. Shu tariqa bu nom butun Denov deya atala boshlandi ⁶.

Surxon vohasi tarixi bilan bog'liq bo'lgan yana bir tarixiy manbalar bu shubhasiz me'moriy yodgorliklar va ziyorat qadamjolaridir. Voha o'lkashunosligini yoritib berishda tarixiy me'moriy obidalar va qadamjolar muhim o'ringa egadir. Surxon vohasida ularning soni juda bir necha yuzdan ko'pdir. Birgina shimoliy Surxon vohasida nafaqat vohada, balki mintaqa va jahon tarixi uchun qimmatbaho hisoblangan qator qadamjolar-u obidalar mavjud. Jumladan Shayx Alouddin Attor ziyoratgohi, Sulton Sanjar Moziy ziyoratgohi, Said Otaliq madrasasi, Xolchayon ziyoratgohi, Zahartepa ziyoratgohi, Qo'tirbuloq ziyoratgohi, Polvontosh ziyoratgohi, Mavlona Zohid ziyoratgohi, So'fi Olloyor ziyoratgohi, Bibi Sarpush ziyoratgohi, Xo'jaipok ziyoratgohi, Xo'ja ilg'or ziyoratgohi, Sangardak sharsharasi, Issiq Chashma ziyoratgohi tarixi, Dalvarzintepa yodgorligi shular jumlasidan ⁷.

Shu bilan birgalikda o'tmishdan darak beraydigan yana juda ko'p tarixiy

⁶ Utayeva Feruza Xolmamatovna. "O'RTA OSIYONING QADIMGI VA O'RTA ASRLAR URBANIZATSIYASI" Durdona nashriyoti. Buxoro-2021. 30-35 b.

⁷ DTPI Tarix va Falsafa kafedrasi. "SURXON VOHASI SHIMOLIY HUDUDLARIDA JOYLASHGAN ZIYORATGOHLAR VA QADAMJOLARNING UMUMIY TAVSIFI" Denov-2023.

makonlar ham bor. 1938-yili Okladnikov tomonidan o'rganilgan Teshiktosh g'ori, 47 gektarni maydonda o'tmishdan dalil sifatida turgan Dalvarzintepa yodgorliklari e'tiborga va e'tirofqa loyiqdir.

Me'moriy obidalar ichida esa Said Otaliq madrasasi va Al-Hakim at-Termiziy majmualari ka'bi noyob tarixiy imoratlar voha qurilish arxetekturasining noyob jihatlaridan biridir. Al-Hakim at-Termiziy maqbarasi IX-XI asrlarga oid. Ushbu majmua Abu Abdullox Muhammad Hakim Termiziy nomi bilan bog'langan. XI asr oxirida Qoraxoniylar hukmdori Muzaffar Ahmad Tigatigin (1081-1095 y) farmoni bilan dahma ichkarisi ajoyib o'ymakori g'isht bilan qoplab chiqilgan. Yana bir me'moriy obidalarda biri bu Jarqo'rg'on minorasidir. IX-X asrlarda Arab manbalarida tilga olingan Sarmangan yoki Charmangan shahriga qiyos qilinadi. Minoraning saqlanib qolgan balandligi 21.5 metr, diametri pastda 5.4 l, yuqori qismida esa 4.1 metr. To'rt burchak xoshiyaning tik yo'lida quyidagi matnni o'qish mumkin. "Saraxslik Ali ibn Muhammad ishi".

Qurbon Soat maqbarasi-XVII asrda maqbara barpo etilgan deya manbalarda keltiriladi. Ziyoratgoh 1-1.5 gektar yerni egallagan. Ushbu qadamjolarining tarixini mahalliy aholi 1000 yillik tarixga ega deb takidlaydi ⁸.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Surxondaryo o'lkashunosligi, ya'ni uning tarixi va madaniyati juda uzoq davrlarga borib tarqaladi. Ushbu zamin ko'hna davrlardan beri mavjud bo'lib, turli nomlar bilan atalib, turli davrlarda har xil davlatlar qo'l ostida bo'lib minglab yillik tarixda sayqallanib kelayotgan ona zamindir. Nima bo'lgan taqdirda ham Surxon vohasining sivilizatsiyasi chuqur ildizga ega. Voha madaniyati jahon va mintaqa madaniyatlarini boyitib uni har tamonlama to'ldirib kelmoqda.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ochildiev Fayzulla "Surxon vohasi beklklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar" Toshkent 2008. 18 b.
2. Sagdullaev A, Xolmatov N, Abdullaev U, Matyakubov X, Shaydullaev A, Tog'aeV J, Matkarimov X, Yusopov A. "MARKAZIY OSIYODA TARIXIY-

⁸ Tursunov Saypulla Narzullaevich. "SURXONDARYO VILOYATINING TURIZIM SALOXIYATI". 2-10 b.

MADANIY VILOYATLARNING SHAKLLANISHI VA ETNIK GEOGRAFIYASI MUAMMOLARI” Toshken-2020. 150-162 b.

3. Tursunov Saypulla Narzullaevich. “SURXONDARYO VILOYATINING TURIZIM SALOXIYATI” 12-14 B.

4. Omonullo Bo’riev. “TEMURIYLAR DAVRI YOZMA MANBALARIDA MARKAZIY OSIYO” Toshkent 1997. 134-138 b.

5. Tursunov Saypulla Narzullaevich. “SURXONDARYO VILOYATINING TURIZIM SALOXIYATI” 14-16 b.

6. Utayeva Feruza Xolmamatovna. “O’RTA OSIYONING QADIMGI VA O’RTA ASRLAR URBANIZATSIYASI” Durdon nashriyoti. Buxoro-2021. 30-35 b.

7. DTPI Tarix va Falsafa kafedrası. “SURXON VOHASI SHIMOLIY HUDUDLARIDA JOYLASHGAN ZIYORATGOHLAR VA QADAMJOLARNING UMUMIY TAVSIFI” Denov-2023.

8. Tursunov Saypulla Narzullaevich. “SURXONDARYO VILOYATINING TURIZIM SALOXIYATI”. 2-10 b.